



**“SO‘NGGI YAPROQ” VA “TUZLI QAHVA” HIKOYALARIDA
BADIY DETALNING O‘RNI**

Abduvahobova Mashhura Iqboljon qizi

Farg‘ona Davlat Universiteti

Filologiya va tillarni o‘qitish

**O‘zbek tili yo‘nalishi 3-kurs
talabasi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada “So‘nggi yaproq” va “Tuzli qahva” hikoyalarida badiiy detalning o‘rni va uning g‘oyaviy-badiiy ahamiyati yoritiladi. Tadqiqotda har ikki asarda uchraydigan muhim detallar — yaproq va qahva obrazlari orqali insoniy tuyg‘ular, umid, fidoyilik va sabr kabi g‘oyalar qanday ifodalangani tahlil qilinadi. Shuningdek, badiiy detalning qahramon ruhiyati va asar mazmunini ochib berishdagi vazifasi qiyosiy asosda ko‘rib chiqiladi. Maqolada badiiy detal kichik unsur bo‘lsa-da, asarning asosiy g‘oyasini chuqur ochib beruvchi muhim ifoda vositasi ekanligi asoslanadi.

Kalit so‘zlar. Detall, yaproq, qahva, tuz, hikoya, rasm, badiiy, vosita, voqealar rivoji.

Badiiy adabiyot inson hayoti, uning kechinmalari va jamiyatdagi munosabatlarni tasvirlashda muhim vosita hisoblanadi. Yozuvchilar asar mazmunini ochish va uni ta’sirli qilish uchun turli badiiy vositalardan foydalanadi. Shulardan biri badiiy detal bo‘lib, u kichik ko‘rinishdagi unsur bo‘lsa ham, asarda katta ma’no ifodalaydi. Badiiy detal qahramonning ruhiy holatini, xarakterini va asarning asosiy g‘oyasini ochib berishga yordam beradi.



Hikoyachilikda dastlab material tanlay bilish, kichik bir epizod bilan katta hayotiy voqeani bera olish qobiliyati bo'lishi kerak. Badiiy asar

mukammalligiga voqelikni batafsil tasvirlash orqali erishiladi. Biroq batafsil tasvirlash ko'proq roman janriga xos bo'lib, hikoya hajman kichik bo'lganidan muallif o'z niyatini ko'proq detallarga yuklashga harakat qiladi. Detallashtirish ixchamlikka olib keladi. Gorkiy aytganidek, hikoyada muhimi detal topishdir.¹

Badiiy detal, avvalo, badiiy voqelikni to'laqonli va konkret his etiladigan darajada jonli tasvirlashga xizmat qiladi. Biroq badiiy asardagi detalning funksiyasi shuning o'zi bilan cheklanmaydi. U badiiy voqelik ashyosi bo'lish bilan birga, badiiy umumlashtirishga intiladi, yozuvchi fikrini aniqlashtirish, to'ldirish, kuchaytirish maqsadlariga ham xizmat qiladi.²

“Tuzli qahva” va “So'nggi yaproq” hikoyalarida ham detall muhim o'rin egallaydi, hatto detal asar sarlavhasi darajasiga chiqarilgan. Xususan, “So'nggi yaproq” asarida badiiy detal sifatida berilgan yaproq obrazi nafaqat voqelikni tasvirlash vositasi, balki chuqur ramziy ma'noga ega unsur sifatida namoyon bo'ladi. Dastlab u oddiy tabiat hodisasi sifatida ko'rinsa-da, voqealar rivoji jarayonida qahramonning ruhiy holati bilan chambarchas bog'lanib, uning yashashga bo'lgan ishonchi va umidining ifodasiga aylanadi. Shu tariqa, detal yozuvchi g'oyasini aniqlashtiribgina qolmay, uni kuchaytiruvchi vosita vazifasini ham bajaradi.

“Tuzli qahva” hikoyasida esa badiiy detal sifatida tanlangan tuzli qahva unsuri qahramon xarakterini ochishda muhim rol o'ynaydi. Bu detal tashqi jihatdan oddiy holat bo'lib ko'rinsa-da, aslida u qahramonning ichki kechinmalari, sevgisi va fidoyiligini ifodalovchi ramziy vositaga aylanadi. Qahramonning bu odatni yillar davomida davom ettirishi orqali yozuvchi



insoniy munosabatlardagi sabr va samimiyatni badiiy umumlashtirish darajasiga olib chiqadi.

1 Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. B.67

2 Quronov D., Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013. B.88.

“So‘nggi yaproq” hikoyasida voqealar kasal qizning holati bilan boshlanadi. U deraza ortidagi daraxt yaproqlarini sanab, oxirgi yaproq tushsa, o‘laman degan fikrga boradi. Shu o‘rinda so‘nggi yaproq detali hikoya markaziga chiqadi. Dastlab bu oddiy tabiat manzarasi sifatida beriladi, ammo voqealar rivoji davomida u qahramonning hayotga bo‘lgan munosabatini belgilovchi omilga aylanadi. Yakunda esa yaproqning aslida chizilganligi ma’lum bo‘lib, bu detal fidoiylik va umid g‘oyasini yanada kuchaytiradi.

“Tuzli qahva” hikoyasida esa voqea bir qarashda oddiy holatdan — qahvaga tuz solib ichishdan boshlanadi. Bu holat boshida tasodifiydek tuyuladi. Biroq keyinchalik ma’lum bo‘ladiki, qahramon bu odatini sevgisi sababli davom ettiradi. Hikoya davomida “tuzli qahva” detali takrorlanib, qahramonning ichki dunyosi va his-tuyg‘ularini ochib boradi. Ayniqsa, yakunda bu odatning asl sababi ochilishi orqali detall chuqur ma’no kasb etadi.

“So‘nggi yaproq” hikoyasidagi Berman chol aslida rassom bo‘lib, u umri davomida biror asarni oxiriga yetkazmagan bo‘ladi. Har gal shoh asar yaratishga urinadi ammo, har doim bu ishni oxiriga yetkazolmaydi. Jonsini o‘lim tushagida yotganini va deraza ortidagi so‘nggi yaproq bilan o‘z hayotini bog‘lay boshlaganini ko‘rgan Berman yomg‘irli tunda barg rasmini chizishi va



bu uning shoh asari ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Shu kechadan so'ng Berman zotiljam kasaliga chalinadi va vafot etadi, bu bilan voqealar rivoji kutilmagan tarzda o'zgarib ketadi. Chunki hikoya boshida Jonsi o'lim tushagida yotgan edi, ammo hikoyada katta burilish yuz beradi va Berman chol vafot etadi. Hikoya yakunida voqealar umuman kutilmagan tarzda yakunlanadi bu yozuvchining badiiy mahorati bilan bog'liq albatta.

“ Tuzli qahva” hikoyani nomidan bilib olish mumkin. Hikoyadagi asosiy detall bu tuz . Tuzli qahva hikoyasi yigit va qizning tanishuvidan boshlanadi. Ular ilk bor kafeda uchrashadi. Shu paytda yigit hayajonlanganidan ofitsiantdan qahvasiga tuz suraydi . Noqulay vaziyatdan chiqish uchun u bu odatini odatiy holdek ko'rsatadi va qahvani ichadi. Qiz esa bu g'alati holatni eslab qoladi. Keyinchalik ular turmush qurishadi. Yigit umr bo'yi qahvani tuz bilan ichishda davom etadi. Qiz nega bunday qilishini so'rganida, u oilasi dengiz buyida yashashi haqida aytadi. Aslida esa u qizni xafa qilmaslik, o'sha ilk uchrashuvdagi vaziyatni yashirish uchun shu odatini davom ettiradi. Yillar o'tib, yigit vafot etgach, qiz uning yozib qoldirgan xatini o'qiydi. Xatda yigit aslida tuzli qahvani yoqtirmaganini, lekin uni sevganligi uchun shu ishni butun umr davom ettirganini tan oladi. Shu orqali hikoya yakunida sevgi, sabr va fidoyilik g'oyasi ochib beriladi.

“So'nggi yaproq” hikoyasida yozuvchi nega yaproqni tanlagan?

So'nggi yaproq hikoyasida O. Henry yaproqni tanlashi bejiz emas: u hayot, umid va fidoyilik ramzi sifatida xizmat qiladi. Qahramon qiz yaproq tushishini o'z hayoti bilan bog'laydi, oxirgi yaproqning “tushmay turishi” esa unda yashashga ishonch uyg'otadi. Aslida bu yaproq rassom tomonidan chizilgan bo'lib, u boshqani saqlab qolish uchun o'zini qurbon qiladi. Shu orqali yozuvchi oddiy yaproq timsolida inson ruhiyati, umid kuchi va mehr-oqibatning buyukligini chuqur ifodalaydi.



“Tuzli qahva” hikoyasida esa markaziy detal — tuzli qahvadir. Bu detal oddiy holat bo‘lib ko‘rinsa-da, aslida qahramonning ichki kechinmalari, sevgisi va sabr-toqatini ifodalaydi. Yigitning umr bo‘yi shu odatni davom ettirishi orqali detal fidoyilik va samimiylik ramziga aylanadi.

Xulosa.

“So‘nggi yaproq” va “Tuzli qahva” hikoyalarini shuni ko‘rsatadiki, badiiy detal asarda asosiy g‘oyani ochib berishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Har ikki hikoyada ham mualliflar oddiy hayotiy holat yoki predmet orqali chuqur insoniy ma‘nolarni ifodalagan. “So‘nggi yaproq”da so‘nggi yaproq obrazi Jonsining ruhiy holati bilan bog‘lanib, uning umidini saqlab qoluvchi ramzga aylanadi. “Tuzli qahva” hikoyasida esa tuzli qahva detali qahramonning sevgisi va fidoyiligini ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Umuman olganda, har ikki hikoyada badiiy detal kichik unsur bo‘lsa-da, katta g‘oyani ochib berishga xizmat qiladi va asarning ta‘sirchanligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020.
2. Quronov D., Mamajonov Z. Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2013.
3. “Tuzli qahva” hikoyasi (zamonaviy hikoya). – 21-asr.
4. O. Henry. So‘nggi yaproq. – 1907-yil.
5. G. Muhammadjonova. Qiyosiy adabiyotshunoslik.- Farg‘ona: Classic, 2025.